

TIFLOPEDAGOGIKANING RIVOJLANISH TARIXI

Dangalov Sunnatulla Mustafayevich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Maxsus pedagogika kafedrası o`qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tiflopedagogikaning rivojlanish tarixi, ya'ni ko'zi ojiz shaxslarni o'qitish, tarbiyalash masalalari chet davlatlari hamda mamlakatimizda qay tarzda olib borilganligi yoritilgan. Ushbu maqolda ko'zi ojiz bolalarni o'qitishda ishlatiladigan metodlar hamda olim va olimalarning tadqiqot natijalari izohlab berilgan.*

Kalit so'zlar: *alohida ta'limga ehtiyoji bor shaxslar, ko'zi ojiz insonlar, tiflopedagogika, mustaqil harakatlanish, mayda qo'l motorikasi, maxsus maktab-internatlar.*

Kishilik jamiyati paydo bo'libdiki, insonlar orasida u yoki bu turdagi nogironlik ham vujudga kelgan. Ko'rishi, eshitishi, aqliy rivojlanishi hamda tayanch-harakatida nuqsoni bo'lgan shaxslarga uzoq o'tmishdan to bugungi kunga qadar o'z davrining marifatparvar va saxovatli insonlari ularning ijtimoiy hayotga moslashishi, hunar o'rganishi, ta'limi, tarbiyasi va qulay yashash muhitiga ega bo'lishlari uchun jon kuydirib kelishmoqda.

Tarixdan ma'lumki, qadimgi Yunonistonda ko'plab ko'zi ojiz o'qituvchilar, faylasuflar va yozuvchilar bo'lgan. Ulardan eng mashhurlari "Illiada" va "Odisseya" dostonlarining muallifi Gomer hamda Didim Iskandariylardir. Didim Iskandariy 5 yoshidan boshlab, ko'rish qobiliyatini yo'qotdi, yog'ochdan yasalgan harflari yordamida yunon alifbosini o'rganadi. Juda ko'p sayohat qildi, 50 yildan ortiq vaqt davomida u Iskandariyada maktabni boshqardi. Uning falsafa va huquqqa oid risolalari o'rta yer dengizining ko'plab mamlakatlarida ma'lum edi.

IX-XII asrda Sharq va arab olamida ko'zi ojiz mashhur insonlar yetishib chiqdiki, ulardan biri X-XI asrlarda yashab o'tgan uch yoshida ko'zi ojiz bo'lib qolgan arab faylasufi va shoiri Abu-l-Olya. U o'z ona tili grammatikasini mukammal o'rgangan, Yunoniston tarixini yaxshi bilgan va 30 dan ortiq ilmiy maqolalar yozgan.

X asr o'zbek adabiyoti va xalq didaktikasiga o'zining "Hibbat ul-haqoyiq" asari bilan munosib hissa qo'shgan Ahmad Yugnakiy ham tug'ma ko'zi ojiz bo'lgan.

Ko'zi ojizlarning ta'lim tizimi hamda ularni savodga o'rgatish g'oyalari fransuz faylasuflari tomonidan o'rganildi va amalga oshirildi.

XVIII asrda badavlat oilalar orasidan ko'zi ojizlarni individual o'qitish holatlari tez-tez uchrab turdi, ularning ba'zilari hatto mashxurlikka erishdilar. Ular orasida musiqa ijrochisi F.Dulon(1769-1826), yog'och o'ymakorligi ustasi I.Kleingans(1776-1850), organist va bastakor D.Stendi (1713-1786), pianinochi M. Paradiz (1759-1821) va boshqalar Yevropada keng shuhrat qozondi.

1720-1750 yillar oralig'ida fransuz marifatparvarlari ko'zi ojiz insonlarni o'qitish g'oyalari bilan qiziqdi. Shulardan biri fransuz faylasufi va pedagogi Deni Didro ko'zi ojizlar hayotini atroflicha kuzatgan va bunday shaxslarga hunar o'rgatish, ijtimoiy hayotga


moslashtirish, jismlarni ushlab ko`rish va teginish orqali ular haqida batafsil ma'lumot olish imkoniyatlari mavjud ekanligini, o`z davrining hunarmand ko`zi o'jiz shaxslar faoliyatini kuzatishlari asosida 1749-yilda yozgan "Ko`zi o'jizlar to`g`risidagi maktublar" asarida ta'kidladi. Deni Didro 30 yillik kuzatishlari natijasida ko`rish imkoniyatidan mahrum bo`lgan shaxslarga ta'lim berish, hunar o`rgatish, ularning og`zaki nutqini rivojlantirish, mustaqil harakatlanish, musiqa chalish kabilarni o`rgatish g`oyalarini 1783-yilda chop etilgan ensiklopediya kitobida ta'kidlab o`tdi.

Fransuz marifatchisi Valentin Gayui Deni Didroning "Ko`zi o'jizlar to`g`risidagi maktublar" asarini o`qiydi va Fransiyadagi ko`zi o'jizlarning g`arib ahvolidan ta`sirlanadi.

Valentin Gayui garchi ko`zi o'jiz bo`lmasada, ko`zi o'jizlar uchun maxsus maktab ochish fikriga kelgan eng birinchi odam edi. Gayui ko`zi o'jizlarni, ularning yashash turmushini, harakatlanish usullarini uzoq vaqt kuzatdi. 1771-yilda Parijdagi yarmarkada Gayui uni hayratga solgan voqeaning guvohi bo`ldi. O`nga yaqin ko`zi o'jiz musiqachilar tomoshabinlar oldida chiqish qilishdi. Kuzatuvchi Gayui musiqachilardan biri pul yig`ayotganda tangalarni teginish orqali qo`l barmoqlari yordamida g`ayrioddiy epchillik bilan ajratib turishini payqadi. Keyin Gayuida "ko`rlarni savodxonlikka o`rgatishning amaliy usullarini yaratish uchun ularga nisbatan g`ayrioddiy nozik sezgi tuyg`usidan foydalanish mumkinmi?" degan fikr paydo bo`ldi.

Ko`zi o'jizlar uchun o`quv muassasalari yo`q edi, ularni tizimli bilim va mehnat faoliyatlari bilan tanishtirish usullari yo`q edi. Valentin Gayui kerakli bilimlarni olish va rejasini amalga oshirishga pul topish uchun o`n uch yil kerak bo`ldi.

Valentin Gayui 1784-yilda hukumat va biror xayriya tashkiloti yordamisiz o`z puliga o`z uyida maktab ochdi va uning birinchi o`quvchisi cherkovda uchratgani Fransua-De-Lazyuer ismli bolakay bo`ldi. So`ng maktabga Fransuaning yana 11 nafar qarovchisiz qolgan tengdoshlari kelishdi. V. Gayui ko`zi o'jiz bolalar ta`lim va tarbiyasini ilmiy asosda tashkil etdi. U maxsus alifbo ishlab chiqib, harflari bir unsiya uzunlikda bo`lgani uchun "Unsiyal" deb atadi. Unsiyal qalin zich qog`ozga bo`rttirib tushurilgan bo`lib, ko`zi o'jizlarni o`qishga o`rgatish va ular uchun kitob chop etish imkonini berardi. So`z tuzish uchun V.Gayui lotin alifbosidagi qirqma harflardan foydalanardi. Qalin qog`ozdan qirqib olingan bu harflar o`rnini bemalol almashtirish mumkin bo`lib, bu ko`zi o'jizlarga zarur matnni tuzish imkonini berardi. Buning uchun harflarni doskaga o`yib ishlangan maxsus katakchalarga joylashtirish kifoya edi. Bulardan tashqari V.Gayui ko`zi o'jizlar uchun o`quv qo`llanmalar, jug`rofiy xarita va globuslar tayyorlashga mo`ljallangan maxsus asbob va qoliplar o`ylab topdi.



V.Gayui ustaxonasida yasalgan xarita.

Bu hunarga u o`zining barcha tarbiyalanuvchilarini ham o`rgatdi.

Bugungi kunda V.Gayui kashf etgan yozuv usulidan har xil chizmalarni, geometrik shakllarni hamda geografik xaritalarni ifodalashda ko`zi ojizlar keng foydalanib kelmoqda.

1809-yilning 4-yanvarida Fransiyaning Kuvr shahrida etikdo`z (egar sozlovchi) usta Ludovik oilasida o`g`il farzand dunyoga keldi. Unga ota-onasi Lui deb ism qo`yishdi. Bola oldiniga nimjon bo`lib, keyinchalik o`z tengdoshlaridek yaxshi rivojlandi. Lui Braylning onasi va opalari ertadan kechga qadar ishlaganlari sababli, jajji Luini otasining ustaxonasiga tashlab ketar edilar. Lui Brayl otasining baquvvat qo`llariga hayrat bilan tikilar va ish qurollari bilan o`ynar edi. 1812-yilda Lui Brayl hayotida mudhish voqea yuz beradi. U otasining ustaxonasida o`tkir bigiz yoki pichoq bilan o`zining o`ng ko`ziga og`ir jarohat yetkazdi. O`sha davr tabobati unchalik rivojlanmaganligi yoki jarohatlangan ko`zini iflos latta bilan bog`laganligi sababli uning ikkinchi ko`zi ham qisqa vaqt ichida ko`rmay qoladi. Luining otasi 3yoshlik o`g`ilchasini qarovsiz qoldirganligi va buning oqibatida jajji farzandi zulmat olamiga mahkum bo`lganligidan o`zini aybdor his qilib, hech qachon o`zini-o`zi kechira olmasligini ta`kidlaydi. Lui Braylga 10 yoshiga qadar otasining do`sti og`zaki hisobni, taxtaga o`yib yozilgan ommaviy harfni o`rgatadi. U 10yoshga kirganda otasi Parijda ko`zi ojizlar maktabi (instituti) borligi haqida xabar topadi va 1819-yilda o`g`lini u yerga o`qishga olib boradi. Lui barcha fanlarni oson o`zlashtiradi, butun maktab kutubxonasini: grek, lotin, ingliz, italiyan, ispan tillari grammatikasi bo`yicha qo`llanmalar, turli badiiy asarlarni o`qib chiqqan. Lui Brayl bo`rtma (releft) xaritada mo`ljalni oson olar, ustaxonada ko`p hunarlar sirini tez o`rganar,skripka, violonchel va organi juda yaxshi chalar edi.

O`qishni dastlabki yillarida Lui hamma qatori "Unsial" alifbosida ta`lim oldi. Keyin Sharl Barbining 36 xil kombinatsiyali, 12 bo`rtma harfdan iborat bo`lgan alifbosi joriy etildi. Mazkur alifbo avvaliga qorong`uda ham o`qish mumkin bo`lgan harbiy telegrammalarga mo`ljallangan edi. Lekin bu alifbo harbiy sohada unchalik muvafaqqiyat qozonmadi. Shundan so`ng Barbi o`zining yozuv usulini ko`zi ojizlarni o`qitish uchun moslashtirishga harakat qiladi. Bu alifboga ko`ra so`zlar orfografiya qoidalariga binoan emas, balki qanday talaffuz etilsa shu tarzda yoziladi. Yozuv qurollari taxta, kvadrat shaklda o`yiqalar tushirilgan chizg`ich va grefillardan iborat edi. Barbi shriftida kitob chop etilmagan.

1825-yilda 16 yoshlik Lui Braylda 6 nuqtadan iborat avvalgidan tubdan farq qiladigan bo`rtma shrift yaratish g`oyasi tug`ildi va mazkur shriftda chop etilgan birinchi kitob "Fransiyaning qisqacha tarixi" bo`ldi. Dastlabki kitoblar ancha yirik, og`irligi 9-12 kg. gacha bo`lgan. Lekin shunga qaramay Brayl yozuvning yengil o`rganilganligi, orfografik qoidalariga qulay moslashgani va kombinatsiyalari yodda qolishi tufayli qisqa vaqt ichida shu qadar ommalashib ketadiki, o`zidan oldingi ikki yozuvni iste`moldan butunlay siqib chiqaradi.

Lui Brayl ko`zi ojizlar ta`lim tizimida ulkan o`zgarishlar yasadi, o`rganish oson bo`lgan yozuvni ishlab chiqarishi bilan ularni ijtimoiy hayotdagi faolliklarini oshiradi. Ungacha ko`zi ojizlar faqat o`zlariga oid sohalaridagina ishlash imkoniga ega edilar. Lui Braylning shriftni sog`lomlar ham oson o`zlashtirgan bois adabiyot, ilmiy darsliklari keng ommaga tarqaldi. Bu ularga bo`lgan qiziqishni yanada kuchaytiradi, sog`lom insonlar bilan bir xil bilimga egalik tuyg`usini uyg`otdi va ko`zi ojizlar ishlashi mumkin bo`lgan sohalar adadini oshirdi.

Lui Brayl ilk o`qishga borgan chog`larida Parijdagi o`sha ko`zi ojizlar ilmiy institutidagi shart-sharoit unchalik yaxshi bo`lmaydi. U o`qib yurgan kezlarida og`ir kasallikka duchor bo`ldi, bu kasallik uzoq yillar Lui Brayl tanasini tark etmaydi. U og`ir betobligi sababli 1852-yilda 43 yoshida vafot etadi.

Mana, qarib 200 yildan buyon butun dunyo ko`zi ojizlari Lui Braylning 6 nuqtali yozuvi orqali olam jumboqlarini anglab kelmoqda.

O`zbek tiflopedagogikasi rus tiflopedagogikasi vorisligi asosida rivojlandi. Avval Yevropa va Amerika Qo`shma Shtatlarida ko`zi ojiz bolalarni o`qishga va hunarga o`rgatish hamda ularni ijtimoiy hayotida kerakli inson qilib tayyorlashga katta ahamiyat beriladi. Bu jarayon asta-sekinlik bilan Rossiya va u orqali Sharqqa tomon siljiy boshladi.

Rossiyaning San-Peterburg shahrida birinchilardan bo`lib XIX asrning 70-yillarida sistematik ravishda ko`zi ojiz bolalarni o`qitishga e`tibor qaratilgan. Ko`zi ojiz bolalarni o`qitishning ilk tajribasi XIX asrning boshidayoq boshlangan. Fransuz tiflopedagogi Valentin Gayui ishtiroki hamda bevosita sayi-harakatlari natijasida 1807-yil Peterburg shahrida ko`zi ojiz bolalar uchun maktab ochiladi. Yekaterina II davridagi qulchilik monarxiyasida Valter va D.Didro ideyalari, ya`ni nogiron bolaga mehr ko`rsatish, uni bepul o`qitish kabi g`oyalar xalq ta`limi muassasalarida, xususan, ko`zi ojizlar maktabida tatbiq etilishining iloji bo`lmagani uchun 1817-yili V. Gayui ochgan maktab yopildi. Rossiyada kapitalizm tuzumi rivojlanishi bilan qulchilik bekor qilinadi. XIX asrning 70-yillarida xalq ta`limida referendumlar boshlanib, tizimli ravishda ko`zi ojiz bolalarni o`qitish boshlanildi, Rossiyada G`arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikadan farqli o`laroq ko`zi ojiz bolalarni o`qitish homiylar orqali amalga oshirilgan. Ko`zi ojiz bolalar bilim yurtlarida o`qitish yagona o`quv reja va dastur asosida olib borilgan. Bunday o`qitish mahalliy tiflopedagoglar tomonidan ijobiy baholaniladi. Lekin tashqaridan turib munosabat bildiruvchi, ko`zi ojizlar ta`limini yaxshi tushunmaydigan insonlar hamda reaksion kuchlarning qarshiligi tufayli tiflopedagoglar va amaliyotchilarni qiyin ahvolga solib qo`yadi. Bu jarayon 10-15-yillab davom etadi. Biroq ilg`or fikrli mahalliy tiflopedagoglar nafaqat rus bolalarni, ko`zi ojiz bolalar muassasalarida o`qitish, balki maktabdan so`ng turli millatga mansub ko`zi ojiz

bolalarni kasb-hunarga o'rgatuvchi maxsus bilim yurtlarida o'qitish lozimligi to'g'risidagi qarashlarini ilgari surishadi. Natijada 1881-yilda Sankt-Peterburgda o'nta ko'zi ojiz o'g'il bolalar uchun birinchi maktab-internat ochildi. Maktabni pedagogikadan uzoq bo'lgan, ammo tiflopedagogika rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shgan Rossiya davlat jamoat arbobi Konstantin Karlovich Grot ochdi.

Rossiyaning Sibir, Yakutya, Tatariston va boshqa markazdan uzoq o'lkalardan ko'zi ojizlar nihoyatda ko'p bo'lgan. Birgina Sibirning o'zida 247 mingdan ziyod ko'zi ojizlar bo'lib, aholining madaniyati pastligi tufayli hamda meditsina yordami yo'qligi, past hayot tarzi ko'zi ojiz bolalarning ko'p tug'ilishiga omil bo'lgan. Rossiya aholisi ichida ko'zi ojiz bolalar ko'pchilikni tashkil qilganligi uchun ham mahalliy tiflopedagoglar ularni o'qitish kerakligi haqida jon kuydirishadi.

Buning natijasi o'laroq, Rossiyada ko'zi ojizlar bilim yurtlari (uchilisha) ochiladi. Mazkur bilim yurtlarida bolalarni o'qitish uchun ota-onalar bir yilda 300 rubl to'lashlari lozim edi. O'sha paytlarda mavjud bo'lgan "Sovet otaligi" nomli tashkilot ota-onalarga 300 rublni to'lashga biroz ko'mak berardi. Biroq bunday imkoniyatdan foydalanish kamdankam ota-onalarga nasib qilardi. Buning ustiga ko'zi ojizlar bilim yurtlari ko'zi ojiz bolani real hayotga tayyor qilib bera olmas edi.

Taniqli oftalmolog A.I.Skrebiskiy o'z ma'ruzasida "Ko'zi ojizlar bilim yurtlarida o'qish bilan birgalikda o'zlari hayot kechirishlari uchun yetarli mablag' topishni ham o'rganishsin" deydi. Oftalmolog Skrebiskiy va K.F.Leykoning ushbu mazmundagi qarashlarini demokratik tiflopedagoglar va umumxalq qo'llab-quvvatlaydi. A.N.Kolubovskiylar ham o'z ma'ruzalarida ko'zi ojizlarni o'qitish muammolari yaqin o'n yillar ichida hal bo'lishi qiyin muammo ekanligini ta'kidlashadi.

Biroq mahalliy tiflopedagoglar ma'murlarning qarshiligiga qaramay, bor e'tiborlarini zaif ko'ruvchi bolalarni o'qitish metodlariga qaratishdi. D.F.Istrashkina o'zining maqolalarida ko'zi ojizlarni o'qitishning qulay usullarini quyidagicha ta'kidlaydi:

- o'qitishning texnik jihatlariga ahamiyat berish;
- tushuntirish metodiga tayanish;
- o'tilgan mavzuning o'zlashtirilganlik darajasini tekshirish;
- o'qigan asarini chuqur tahlil qilish hamda uning mazmun-mohiyatini anglash qonun-qoidalarini o'rganish;
- ko'zi ojiz bolalarning lug'atini boyitish.

Shuni aytish kerakki, Rossiya tiflopedagoglarining rejaları, maqsadlari, orzu- o'ylari 1917-yilda sodir bo'lgan oktyabr inqilobidan keyin asta-sekin amalga osha boshlaydi.

1917-yilda oktyabr inqilobidan keyin maktab-internatlar xalq ta'limi tizimining ajralmas qismiga aylandi. 1928-yilda ko'zi ojizlar uchun sovet maktab dasturlari paydo bo'ldi. Sharoitlar nafaqat to'liq ko'zi ojiz, balki ko'rish qobiliyati past odamlar uchun ham yaratilgan. Ular uchun 30-yillarning boshlarida ko'rish qobiliyatini himoya qilish darslari ochildi. 30-yillarda ko'zi ojizlar maktablarida ta'lim mazmuni fizika, matematika, tabiatshunoslik va boshqa fanlar bilan boyitilgan.

Ko'zi ojizlarni umumta'lim fanlariga o'qitish metodikalarini ishlab chiqishga taniqli tiflopedagog, Leningrad pedagogika instituti professori Boris Ignatiyevich Kovalenko katta

hissa qo'shdi. Boris Ignatiyevich tomonidan bildirilgan nazariy qoidalar alohida ahamiyatga ega, chunki ular ko'zi ojiz odamning shaxsiy tajribasiga asoslanadi. Tiflopedagog va tiflopsixolog L. I. Solntseva maktabgacha yoshdagi ko'zi ojiz bolalarning ko'rish idrokidagi muammolarni korreksiyalash nazariyasini ishlab chiqdi. Y.A. Kulagin, A.G.Litvak, V.P.Yermakov, A.I.Kaplan, A.B.Gordin, R. S. Muratov, B. V.Sermeyev, V. A. Feoktistova, E. M.Sternina, I.S.Morgulis, L. A. Semyonov kabi olimlar ko'zi ojiz bolalar ta'limiga oid darslik va metodik qo'llanmalar yozish orqali tiflopedagogika rivojiga o'z hissalarini qo'shdi.

Mana shunday tarixiy sharoitda O'zbekistonda ham ko'zi ojiz insonlarga ta'lim va hunar o'rgatadigan ilk muassasalar paydo bo'la boshladi. Harbiy asir hisoblangan vrach Kalman Xorvat Toshkent shahrida shunday maktablardan birini tashkil etadi. 1920-yilda turli kasallik nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun dastlabki maktab ochilgan edi. Kalman Xorvat ana shu maktabning birinchi mudiri bo'lgan. U bilan birga mehnat qilgan L.I. Novoselova, A.A. Kozlova, A. Bekchurova, V.V.Gulina, X.Kamoliddinova o'z ishining ustasi va jonkuyari bo'lgan ajoyib insonlar toifasidan edilar. Internat-maktabning oyoqqa turishi va tarkib topish davri bo'lgan bu yillar, eng og'ir yillar edi. Maktabni ta'sis etuvchilar bolalarni qabul qilish haqida e'lonlar berish va ota-onalar o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borishlari uchun Toshkentdan Krosnovadek shahrigacha bo'lgan masofada faoliyat ko'rsatishlariga to'g'ri kelgandi.

1929-yil davlat arbobi Yo'ldosh Oxunboboyevning bevosita ishtirokida maktabdagi ko'zi ojiz va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ajratib o'qitish tashkil qilingan.

Demak, 95 yildan buyon mamlakatimizda ko'zi ojiz bolalarga savod o'rgatib kelinmoqda. Yurtimizda bugungi kunda ko'zi ojiz bolalarga ixtisoslashtirilgan "Nurli maskan" maktab-internatlari 17tani tashkil etadi va ularda tahsil olayotgan o'quvchilar 3500dan ortiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.M.Dangalov. Tiflopedagogika tarixi va uning ahamiyati. Toshkent – 2010.
2. N.Z.Abidova. Maxsus psixologiya (Tiflopsixologiya). Toshkent-2017.
3. S.M.Dangalov. Sohada isloh zarur. Bir safda jurnali. 1-son. Toshkent-2017.
4. F.U.Qodirova, Z.X.Xusnuddinova. Tiflopedagogikaning umumiy masalalari. Toshkent.2023.